



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 09 | pp. 109-115 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

GLOBAL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA XALQARO MOLIYA BOZORINING TUTGAN O'RNI



Bobojonova Sevara Baxrombek qizi
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola global iqtisodiyotning rivojlanishida xalqaro moliya bozorining tutgan o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada xalqaro moliya tizimining iqtisodiy integratsiya, kapital oqimlari va valyuta kurslari kabi asosiy elementlarining global iqtisodiyotga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda xalqaro moliya bozorlarining samarali ishlashi global iqtisodiy o'sishga, investitsiyalarning barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy notekislikni kamaytirishda qanday rol o'ynashi ko'rsatilgan. Biroq, bu tizimlarning noaniqligi va muammolari ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Maqolada xalqaro moliya bozorlarining barqarorligini ta'minlash, davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish va global iqtisodiy inqirozlarni oldini olish zarurligi haqida xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: global iqtisodiyot, xalqaro moliya bozorlar, kapital oqimlari, iqtisodiy integratsiya, valyuta kurslari, investitsiya oqimlari, iqtisodiy o'sish, barqarorlik, moliyaviy inqiroz.

Abstract: This scientific article analyzes the role and importance of international financial markets in the development of the global economy. The article examines the impact of key elements of the international financial system, such as economic integration, capital flows, and exchange rates, on the global economy. The study demonstrates how the efficient functioning of international financial markets contributes to economic growth, the stability of investment flows, and reducing economic imbalances. However, the article also highlights the uncertainties and challenges posed by these systems. The conclusion emphasizes the necessity of ensuring the stability of international financial markets, strengthening international cooperation, and preventing global economic crises.

Keywords: global economy, international financial markets, capital flows, economic integration, exchange rates, investment flows, economic growth, stability, financial crisis.

Аннотация: Данная научная статья анализирует роль и значение международных финансовых рынков в развитии глобальной экономики. В статье рассматривается влияние ключевых элементов международной финансовой системы, таких как экономическая интеграция, капитальные потоки и валютные курсы, на глобальную экономику. Исследование показывает, как эффективное функционирование международных финансовых рынков способствует экономическому росту, стабильности инвестиционных потоков и снижению экономических дисбалансов. Однако также подчеркиваются неопределенности и проблемы, связанные с этими системами. В заключении сделан вывод о необходимости обеспечения стабильности международных финансовых рынков, укрепления международного сотрудничества и предотвращения глобальных экономических кризисов.

Ключевые слова: глобальная экономика, международные финансовые рынки, капитальные потоки, экономическая интеграция, валютные курсы, инвестиционные потоки, экономический рост, стабильность, финансовый кризис.

KIRISH

Global iqtisodiyotning rivojlanishida xalqaro moliya bozorining o'rnini tobora muhimroq bo'lib bormoqda. Xalqaro moliya bozorlarining so'nggi o'zgarishlari va rivojlanish jarayonlari global iqtisodiyotning qanday shakllanishiga, yirik iqtisodiy markazlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarga va moliyaviy barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi xalqaro moliya bozorlarining global iqtisodiyotdagi o'rnini tahlil qilish, ularning iqtisodiy integratsiya, kapital oqimlari va valyuta kurslari orqali global iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir ko'rsatishini chuqurroq tushunishga yordam berishdan iborat. Tadqiqotda moliya bozorlarining barqarorligi, investitsiya oqimlarini boshqarish va iqtisodiy notekislikni kamaytirishdagi roli o'rganiladi. Shu bilan birga, xalqaro moliya tizimining noaniqliklari, iqtisodiy inqirozlarning oldini olish yo'llari va davlatlararo moliyaviy hamkorlikni mustahkamlash zarurati ham ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotning asosiy gipotezasi shundan iboratki, xalqaro moliya bozorlarining samarali ishlashi global iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, investitsiya oqimlarining barqarorligini ta'minlaydi va iqtisodiy inqirozlarning oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning xalqaro moliya tizimiga joriy etilishi global moliya bozorlarining barqarorligi va samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, valyuta kurslarining beqarorligi va moliyaviy tartibga solishning yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi global iqtisodiy muvozanatni buzishi mumkin.

Bu gipoteza xalqaro moliya bozorlarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri bo'yicha turli iqtisodchilar tomonidan ilgari surilgan nazariyalarga asoslanadi va maqola davomida statistik ma'lumotlar hamda iqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida tekshiriladi.

2025-yilga kelib, xalqaro moliya bozorlarining yangi omillari, jumladan, sun'iy intellektning joriy qilinishi, global savdoning qayta shakllanishi va raqamli valyutalar bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar iqtisodiy tuzilmalarni tubdan o'zgartirmoqda.

Xususan, pandemiya davridan keyin xalqaro moliya bozorlarida barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning yangi mexanizmlari yuzaga keldi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi kapital oqimlari, valyuta kurslarining o'zgarishi va markaziy banklarning pul-kredit siyosati global iqtisodiy muvozanatni saqlashda davom etmoqda.

Maqolada xalqaro moliya bozorining global iqtisodiyotdagi roli, ularning o'zgarishlarga qanday ta'sir qilishi va iqtisodiy barqarorlikka qo'shgan hissasi yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro moliya bozorlarining iqtisodiyotdagi o'rnini va rivojlanishi haqida bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud. So'nggi yillarda ushbu bozorlarning global iqtisodiyotni shakllantirishdagi roli yanada oshgan, shuning uchun turli ilmiy izlanishlar bu sohada yangi tendensiyalarni o'rganishga qaratilgan. Quyida ayrim asosiy tadqiqotlar va nazariy yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

1. Global moliya bozorlarining barqarorligi va muvozanatni ta'minlash Keynesning (1936) iqtisodiy nazariyalariga ko'ra, moliya bozorlarining barqarorligi iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ammo so'nggi yillarda, jumladan, 2008 yilgi moliyaviy inqirozdan keyin, xalqaro moliya tizimining ishonchliligi va barqarorligi haqidagi tadqiqotlar ko'paygan. Friedman (1999) va Krugman (2009) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, xalqaro moliya bozorlarining rivojlanishi va ular bilan bog'liq iqtisodiy beqarorlikning oldini olish usullari haqida yoritilgan.

2. Raqamli moliya va sun'iy intellektning roli

So'nggi yillarda raqamli moliya bozorlarining o'sishi, blockchain texnologiyasi va kriptovalyutalar, masalan, Bitcoin va Ethereum kabi yangi raqamli aktivlarning rivojlanishi iqtisodiy tizimlarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt (AI) va big data (katta ma'lumotlar) moliya bozorlarida risklarni tahlil qilish, moliyaviy qarorlarni qabul qilish va prognozlashda keng qo'llanilmoqda (Brynjolfsson & McAfee, 2017). Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi xalqaro moliya tizimida yangi imkoniyatlar yaratib, bozorlar o'rtasidagi bog'lanishni kuchaytirgan.

3. Xalqaro savdo va moliya bozorlarining o'zaro ta'siri

Obstfeld (2010) va Gourinchas (2020) tadqiqotlarida xalqaro savdo va moliya bozorlarining o'zaro aloqalari tahlil qilingan. Ular xalqaro investitsiya oqimlari va valyuta kurslari o'zgarishlarining bir-biriga qanday ta'sir qilganini ko'rsatdilar. Global iqtisodiyotning integratsiyalashuvi, shuningdek, moliya bozorlarining rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqliklar yanada chuqurlashgan, va bu o'zgarishlar ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatishi mumkin.

4. Valyuta kurslari va kapital oqimlarining o'zgarishi

So'nggi yillarda valyuta kurslari va kapital oqimlarining o'zgarishi xalqaro moliya bozorlarining global iqtisodiyotga ta'sirini yanada kuchaytirdi. Mamlakatlar o'rtasida kapitalni qabul qilish va jo'natishning soddalashtirilishi, shuningdek, valyuta kurslarining ko'p o'zgarishi iqtisodiy notekislikni kuchaytirdi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu moliya tizimlarining barqarorligini saqlashda qiyinchiliklar yaratadi (Obstfeld, 2010)


TADQIQOT USULLARI

Ushbu maqolada xalqaro moliya bozorining global iqtisodiyotga ta'siri va o'rnini haqida tahliliy yondashuvlar qo'llanildi. Maqolada sifatli va miqdoriy metodlardan birgalikda foydalanildi. Birinchi navbatda, iqtisodiy ko'rsatkichlar, masalan, global investitsiya oqimlari, valyuta kurslarining o'zgarishi, kapital bozorlarining rivojlanishi kabi o'lchovlar tahlil qilindi. Shuningdek, xalqaro moliya bozorining iqtisodiy integratsiya va global iqtisodiy o'sishdagi o'rnini ko'rib chiqildi. Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida xalqaro moliya bozorlarining rivojlanishiga oid statistik ma'lumotlar va iqtisodiy tahlillardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Jahon moliya bozori xalqaro kapital bozorining bir qismi bo'lib, turli mamlakatlardagi kreditorlar va qarz oluvchilarning kapitalga bo'lgan jami talab va taklifini o'zida mujassamlashtiradi. Shu o'rinda moliya bozori va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlab o'tish lozim. Chunki moliya bozorining mavjudligini asosiy tamoyili iqtisodiy o'sishni jadallashtirish hisoblanadi. Moliya bozori va iqtisodiy o'sishni quyidagi oddiy misol (investitsiyalar) bilan tushuntirishga urunib

ko'ramiz. Iqtisodiy o'sish va investitsiyalar (moliyaviy instrument ko'rinishini olgan investitsiya)ning o'zaro bog'liqligi mexanizmi Nobel mukofoti laureati P.Samuelson tomonidan "akselerator tamoyili" ko'rinishida quyidagicha ifodalangan [1]: real YaIM o'sishi real investitsiyalar o'sishiga olib keladi, o'z navbatida real investitsiyalarning ko'tarilishi unga javoban YaIM o'sishiga sabab bo'ladi. Bu tamoyilning muhim jihati shundan iboratki, real investitsiyalar real kapital (bino va inshootlar, mashina va anjomlar) va ishlab chiqarish zahiralari bahosi ortishini bildiradi. Demak, ko'rinib turibdiki, moliyaviy instrumentlar (qimmatli qog'ozlar) yordamida real kapitalga qilingan investitsiyalarning ortishi uning bahosini oshiradi, bu esa mos ravishda moliyaviy instrument ko'rinishini olgan investitsiyalarning o'sishiga olib keladi, ya'ni "moliyaviy instrument (qimmatli qog'oz) va uning real bazisi (real kapital) o'rasidagi ekvivalentlilik" tamoyilini to'g'riligini hamda iqtisodiy o'sish, investitsiyalar va moliya bozorining o'zaro bog'liqligi isbotlaydi.




1-rasm. Dunyo mamlakatlarining jahon moliya bozoridagi ulushi¹ (2024 yil, %da)

Demak, moliya bozori mamlakat YaIM shakllanishini, iqtisodiy o'sishning ta'minlanishini harakatga keltiruvchi unsur bo'lib xizmat qiladi. Dunyo moliya bozorida mamlakatlar ulushining kattaligi davlatning iqtisodiy qudratini, boshqa mamlakatlarga ta'sirini ko'rsatib beradi. Bugungi kunda dunyo moliya bozorining umumiy qiymati 230 trillion AQSh dollaridan yuqoriligi ko'plab yillik hisobotlar va maqolalarda qayd etib o'tilgan [2]. 1-rasmda dunyo mamlakatlarining jahon moliya bozoridagi ulushi keltirilgan.

Bugungi kunga kelib, nisbatan kam sonli mamlakatlar o'rtasida moliya bozorining salmoqli ulushi taqsimlangan. Bular ichida eng kattalari AQSh (43%), Yaponiya (5%), Xitoy (11%), Gongkong (4%), Buyuk Britaniya (2.9%), Fransiya (3%), Germaniya (11%) kabi dunyoning eng qudratli mamlakatlari o'rin olgan. Ko'rinib turibdiki dunyo moliya bozorining uchdan ikki qismi aksariyat rivojlangan mamlakatlarga tegishli. Jahon moliya bozorining asosiy segmentlaridan biri fond birjasi yoki qimmatli qog'ozlar (kapital) bozori hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2024 yilda jahon fond bozori kapitalizatsiyasi 120 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. Kapitalizatsiyaning asosiy qismi Amerika Qo'shma Shtatlari hissasiga to'g'ri kelgan.


¹ Capital Markets Fact Book, July 2025. www.sifma.org/research

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, AQSh kapitalizatsiyasi dunyoning boshqa jami mamlakatlari fond bozorining kapitalizatsiyasiga qariyb teng bo'lib qolgan. Shu sababli o'rganishlarimiz jarayonida ko'proq urg'u AQShga beriladi. AQSh kapital bozori dunyodagi eng katta va to'lovlik va samaradorlik qobiliyati eng yuqori bo'lgan mamlakat hisoblanadi.



2-rasm: Jahon fond bozori kapitalizatsiyasining 2024 yilda dunyo mamlakatlari kesimida taqsimlanishi² (%)

AQShning undagi ulushi 38 foizni yoki jami kapitalning 32 trillion dollarini tashkil etgan. Bu o'zidan keyingi eng yirik bozordan qariyb 3,5 barobar katta demakdir (Yevropa ittifoqiga nisbatan (Buyuk Britaniyani hisobga olmaganda)). Shuningdek, jahon fond bozorining asosiy ishtirokchilari qatoriga Yevropa Ittifoqi (11%), Xitoy (10%), Yaponiya (7%), Buyuk Britaniya (5%), Gong Kong (5%), Kanada (3%), Avstraliya (2%) va Singapur (1%) ni kiritishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlar dunyo fond bozorining asosiy o'yinchilari hisoblanadi (2-rasm).




3-rasm. Jahon fond bozori kapitalizatsiyasi faqatgina AQSh va rivojlanayotgan mamlakatlar mavjud bo'lgan holatda qanday taqsimlanishi³ (2024 yil, %)

² Capital Markets Fact Book, July 2025. www.sifma.org/research

³ Capital Markets Fact Book, July 2025. www.sifma.org/research

AQSh kapital bozori qiymati mamlakat yalpi ichki mahsulotidan qariyb 2 barobar katta - fond bozori YaIMning 162 foizini tashkil etadi, YaIMni doimiy daromad bozori (Fixed income market) bo'yicha hisoblaganda AQSh kapitali 207 foizni tashkil etgan. Jahon qimmatli qog'ozlar bozori kapitali 2024 yilda 120 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 195 dona mamlakat mavjud. Ularning 80ga yaqini rivojlangan mamlakatlar sifatida e'tirof etilishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki qolgan 115 mamlakat rivojlanayotgan yoki turg'un (rivojlanishdan to'xtagan) mamlakatlar hisoblanadi. Aynan shu mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston dunyo fond bozorining atiga 17 foiziga egalik qiladi. Solishtirish uchun yuqoridagi holatni e'tiboringizga taqdim etmoqchimiz (misol tariqasida). Agar dunyo fond bozori faqatgina AQShning 38 foizlik ulushi va rivojlanayotgan mamlakatlarning 17 foizlik ulushidan iborat bo'lganda edi, ular o'rtasidagi fond bozori kapitalizatsiyasi yuqoridagi kabi taqsimlangan bo'lar edi. Ya'ni AQSh bozorining 69 foiziga (bozorning uchdan ikki qismi) rivojlanayotgan mamlakatlar 31 foizga egalik qilgan bo'lar edi (3-rasm)



4-rasm. Jahon moliya bozori segmentlari va unda dunyo mamlakatlarining ulushi⁴ (%)

4-rasmda keltirilgan diagrammalarda jahon moliya bozorining asosiy segmentlaridan biri hisoblangan fond bozori va doimiy daromad bozorlarining moliya bozoridagi ulushi hamda mamlakatlar o'rtasida taqsimlanishi keltirilgan. Fond bozori 2024 yilda 120 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, doimiy daromad bozori qiymati 130 trillion dollarga teng bo'lgan. Jahon fond bozori va doimiy daromad bozori bo'yicha aksariyat dunyo mamlakatlarining ulushi teng. Biroq bu ko'rsatkichlar Yevropa Ittifoqi hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda keskin farq qiladi (4-rasm). Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida global va mintaqaviy moliyaviy markazlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan, iqtisodiy-moliyaviy, huquqiy- me'yoriy mexanizmlar majmui asosida turli mahalliy va xorijiy moliya institutlarining ma'lum bir joyda moddiy-iqtisodiy manfaat yuzasidan to'planishini ta'minlaydi. Natijada mamlakat moliya bozoridagi aktivlar va ko'rsatiluvchi xizmatlar turini ko'paytiradi, innovatsion mahsulotlar bilan takomillashgan, iqtisodiy mustahkam, murakkab infratuzilmani yuzaga keltiradi. Moliyaviy institutlarning bir joyga to'planishi yoki akkumulyatsiyasi hisobiga shakllangan moliya bozoridagi kuchli raqobat ular ko'rsatadigan xizmatlarning iste'molchilar talabi asosida son va sifat jihatdan oshishiga olib keladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro moliya bozorlarining rivojlanishi global iqtisodiy o'sishga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Xalqaro

⁴ Capital Markets Fact Book, July 2025. www.sifma.org/research

moliya bozorlarining samarali ishlashi global investitsiya oqimlarining barqarorligini ta'minlashda, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashda va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Yangi investitsiyalarni jalb qilish, rivojlanayotgan mamlakatlarga kapital oqimlarini oshirish va xalqaro savdoni rivojlantirishda xalqaro moliya bozorlarining o'rni katta. Shuningdek, valyuta bozorlarining o'zgarishi va global moliya tizimidagi muammolar global iqtisodiyotdagi notekislikni kuchaytirishi mumkin.

Xalqaro moliya bozorlarining global iqtisodiyotdagi ahamiyati keng qamrovli va murakkab. Ushbu tizimlar nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi moliyaviy oqimlarni boshqaradi, balki iqtisodiy tizimlarni birlashtiradi va o'zaro bog'liq qiladi. Rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi kapital oqimlarining o'zgarishi iqtisodiy tengsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, xalqaro moliya bozorlarining inqirozi (masalan, 2008 yilgi global moliyaviy inqirozi) butun dunyo iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu holatlar xalqaro moliya bozorlarining muvozanatini ta'minlashning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

XULOSA

Xalqaro moliya bozorlari global iqtisodiyotning rivojlanishida ajralmas o'rin tutadi. Ular mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, kapitalni samarali taqsimlash va global iqtisodiy integratsiyani ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, bu tizimlarning noaniqligi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi muammolar ulkan xavf tug'diradi. Shuning uchun, xalqaro moliya tizimining barqarorligini ta'minlash, davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish va global iqtisodiy inqirozlarning oldini olish zarurdir. Xalqaro moliya bozorlarining rivojlanishini to'g'ri yo'naltirish uchun xalqaro hamkorlik va investitsiyaviy siyosatlarni yaxshilash zarur.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati

1. Krugman, P., & Obstfeld, M. (2020). *International Economics: Theory and Policy* (10th ed.). Pearson Education.
2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2021). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W.W. Norton & Company.
3. Stiglitz, J., & Sen, A. (2022). *Development as Freedom*. Oxford University Press.
4. Minsky, H. P. (2023). *Stabilizing an Unstable Economy*. McGraw-Hill.
5. Reinhart, C. M., & Rogoff, K. S. (2024). *This Time is Different: Eight Centuries of Financial Folly*. Princeton University Press.
6. Blanchard, O. (2019). *Macroeconomics* (7th ed.). Pearson.
7. Eichengreen, B. (2020). *Globalizing Capital: A History of the International Monetary System* (2nd ed.). Princeton University Press.
8. Rogoff, K. S. (2018). *The Curse of Cash*. Princeton University Press.
9. . Mishkin, F. S. (2019). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. Pearson.
10. Capital Markets Fact Book, July 2025. www.sifma.org/research

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

